



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
Xilola Nematovna Ochilova Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
ИНВЕСТИЦИЯ	
Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
Зариф Юсупович Аминов Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
Шахриёр Шодиёрович Тураев Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Feruz Kubaymurodovna Ismoilova Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
Khasan Khankeldiyev, Shakhrux Bobojanov A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

Feruza Kubaymurodovna Ismoilova – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ТА’ЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗORIDA MALAKALI KADRLARGA BO’LGAN EHTIYOJNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan talabni shakllantirish bosqichlari yoritilgan. Ta’lim xizmatlari bozori va sohaga oid tashkilotlarda turli xil malaka darajasidagi mutaxassislariga bo’lgan talabini umumiy lashtirishga ko’maklashuvchi asosiy strategiyalarni amalga oshirish mexanizmlari ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim xizmatlari, talab, mehnat resurslari, kasbiy tayyorgarlik, xalqaro reyting, ehtiyoj, integratsiya, hamkorlik.

Kirish. Hozirgi kunda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va ta’lim xizmatlari bozorida yuzaga kelayotgan kuchli raqobat ushbu sohaning holati va istiqbolini tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlarni, ayniqsa malakali mutaxassislariga bo’lgan talabni inobatga olgan holda, qayta ko’rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O’zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yuqori malakali, innovatsion faoliyat sharoitlariga moslasha oladigan, turli iqtisodiy tarmoqlarda samarali ishlay oladigan bilimli va tajribali mutaxassislarni jalb etishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, iqtisodiy, demografik va boshqa omillar ta’sirida mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish sur’atlarining kamayib borayotganligi sharoitida malakali kadrlarning faolligini oshirish va bu jarayonni tizimli boshqarish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Hozirgi davrda ayrim hududlarda iqtisodiy tizimlarning malakali mutaxassislariga bo’lgan talablari bilan ta’lim xizmatlari bozorining takliflari o’rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjud bo’lib, bu holat salbiy oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Xususan, quyidagi muammolar buni yaqqol aks ettiradi:

- oliy ta’lim muassasalari tomonidan ayrim yo’nalishlar bo’yicha ortiqcha mutaxassislar tayyorlanishi, boshqa muhim kasblar bo’yicha esa mutaxassislar tanqisligining paydo bo’lishi;
- bitiruvchilarning amaliy ko’nikmalari va kasbiy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, bu esa ish beruvchilarning talablariga javob bermaslik holatlarini keltirib chiqarishi;
- ba’zi bir hududlarda me’yordan ortiq ishsizlikning ko’payishi va davom etayotganligi;
- iqtisodiy inqirozning korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga salbiy ta’siri natijasida xodimlar sonining qisqarishi, bu esa oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun ish o’rinlari imkoniyatlarini kamaytirishi va boshqa shunga o’xshash holatlar.

O’zbekistonda aholining ko’pligi, ta’lim xizmatlari va ilmiy salohiyatning mavjudligi, mehnat bozoridagi nomutanosibliklar, ish beruvchilarning malakali mutaxassislariga bo’lgan talabi bilan mavjud ishchi kuchining ixtisoslashuv darajasi o’rtasidagi tafovutlar bilan birgalikda namoyon bo’lmoqda. Bunday sharoitda korxonalarning malakali kadrlarga bo’lgan talablari va ta’lim xizmatlari bozoridan keladigan takliflar o’rtasidagi nomuvofiqlik salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanishi hamda hududiy ta’lim tizimlari faoliyati jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo’lib, mazkur yo’nalishdagi tadqiqotlar Gaynarov D.A., Galyamov R.R., Baburin V.A., Balyxin G.A., Volkov S.D., Guzov Yu.N., Lisitsin S.A., Minaev D.V. va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan..

Mavzu yuzasidan mahalliy olimlarimizdan G.N.Axunova, S.S.G’ulomov, D.N.Rahimova M.X.Saidovlar ham ta’lim tizimi, yoshlar ish bilan bandligi muammolari, mehnat bozori segmenti va yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ushbu olimlarning ishlari ta’lim xizmatlari bozorida kadrlarga bo’lgan talabni rivojlantirish jarayonlari uchun nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Ular olib borgan tadqiqotlar ta’limni xalqaro darajada sifatli va raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni rivojlantirish asoslarining metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg’unlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish, uning muvaffaqiyat omillarini aniqlash va natijalarini samarali boshqarish maqsadida jamlash, guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez usullari qo’llanildi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim xizmati bozori mamlakat rivojlanishining asosiy tarmoqlaridan biri bo’lib, jamiyatda inson kapitaliga bo’lgan talabni shakllantiradi, iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirishga hamda ijtimoiy sohalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, ta’lim xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish va uning sifatini oshirish har bir jamiyatning strategik maqsadlaridan biri bo’lishi kerak.

Ko’pgina tadqiqotlarning aksariyati ta’lim xizmatlari bozorida ta’lim sifati, ta’lim muassasalarini boshqarish va o’quv jarayonlarini tashkil etish kabi amaliy masalalarni hal etishga yo’naltirilgan. Shu o’rinda, iqtisodiy tizimlarning malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyoji va ta’lim xizmatlari bozorining o’zaro aloqadorligini, ayniqsa, bu munosabatlarning nazariy asoslari hamda ularning iqtisodiy xususiyatlarini chuqur tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, ta’lim va bandlik sohalariga global tendensiyalarning ta’siri, yangi yo’nalishlarning shakllanishi va ularning mintaqaviy kontekstdagi aks ettirilishi kam yoritilgan.

Ushbu sharoitda ta’lim xizmatlarining hududiy bozori hamda iqtisodiyot tarmoqlarining professional kadrlarga bo’lgan talablari o’rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish maqsadida kompleks strategik yondashuv va samarali mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu esa, o’z navbatida, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashni ta’minlash, ularning ixtisoslashgan bandligini oshirish hamda tarkibiy ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ta’lim xizmatlari bozorida kechayotgan o’zgarishlarning yuqori darajadagi dinamikasi ta’lim sohasi hamda ishlab chiqarish sektori o’rtasida samarali integratsiya va barqaror hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishni talab qilmoqda. Bunday sharoitda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Xususan, ta’lim xizmatlari bozorining takliflari bilan real sektor – ya’ni korxonalar va tashkilotlarning turli malaka darajasidagi kadrlarga bo’lgan ehtiyojlari o’rtasida muvozanatni ta’minlash, ta’lim sohasini chuqur isloh qilish va uning tuzilmasini qayta ko’rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur yo’nalishda samarali natijaga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo’lgan dastlabki choralar qatoriga ta’lim muassasalarining integratsiyalashgan modelini shakllantirish kiradi. Jumladan, ko’p bosqichli ta’lim tizimini qo’llab-quvvatlaydigan resurs markazlari va o’quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish orqali bilim berish, amaliy ko’nikmalarni shakllantirish hamda bandlikka yo’naltirishning yagona tizimi yaratilib, ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi uzviy bog’liqlik mustahkamlanadi.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda ta’lim xizmatlariga bo’lgan talab shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Jumladan, yirik shaharlarda ta’lim muassasalarining yuqori darajada konsratsiyalashuvi, oliy ta’lim muassasalari sonining keskin o’sishi, shu bilan birga, asosiy kasbiy ta’limni ta’minlovchi o’rta maxsus va professional ta’lim muassasalari ulushining kamayishi, ta’lim xizmatlarini tijoratlashtirish jarayonining kuchayishi, aholi tomonidan ushbu xizmatlarga nisbatan barqaror talab mavjudligi hamda ta’limning ommaviy hodisaga aylanishi ushbu jarayonlarga misol bo’la oladi.

Mazkur holatlarni tahlil qilish natijasida, bandlikning an’anaviy va muqobil (moslashuvchan) shakllarini hisobga olgan holda ta’lim xizmatlari bozorining hududiy kesimda muvozanatli rivojlanishini ta’minlash bo’yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar aholining ta’lim xizmatlariga bo’lgan real ehtiyojlarini aniqlash, iqtisodiyot tarmoqlarining malakali kadrlarga bo’lgan o’sib boruvchi talabini qondirish hamda ta’lim va bandlik o’rtasidagi tizimli uzviylikni mustahkamlashga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda ta’lim xizmatlari bozorida kelayotgan takliflar bilan korxonalarining malakali kadrlar ehtiyoji o’rtasida muayyan darajadagi nomuvofiqlik (nomutanosiblik) mavjudligi ko’zga tashlanmoqda. Bu holat bir qator salbiy tendensiyalar orqali ifodalanadi. Xususan, iqtisodiyotda ayrim kasblar bo’yicha mutaxassislar yetishmasligi bilan birga, oliy ta’lim

muassasalarini bitirayotgan ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislarning ortib borishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi va amaliy ko‘nikmalarining sifat jihatidan ish beruvchilarning talablariga mos kelmasligi muammo sifatida mavjud.

Ko‘plab hududlarda tarkibiy ishsizlik darajasining yuqori bo‘lishi ham ushbu nomuvofiqlikni kuchaytirayotgan omillardandir. Shuningdek, iqtisodiy inqiroz oqibatida korxonalar va tashkilotlarda xodimlar sonining qisqarishi ta‘lim muassasalarini bitiruvchilari uchun mavjud ish o‘rinlari sonining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni yechish uchun ta‘lim va mehnat bozorining ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi tizimli choralar ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston hududlaridagi ta‘lim xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular ta‘lim tizimining strukturaviy va funksional jihatlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Jumladan, yirik shaharlardagi ta‘lim muassasalarining yuqori darajada kontsentratsiyalashuvi ta‘lim resurslarining markazlashuvi va ta‘limga bo‘lgan talabning asosan shaharlarda to‘planishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich kasb-hunar ta‘limi beruvchi muassasalarning ulushi kamayib borayotgan bir paytda, oliy ta‘lim muassasalarini, xususan universitetlarni sonining keng ko‘lamli o‘sishi kuzatilmoqda. Bu jarayon natijasida ta‘lim xizmatlari ommaviylashib, aholining ta‘limga bo‘lgan barqaror talabini shakllantirmoqda. Ta‘lim muassasalarini esa asosan davlat sektori tomonidan boshqarilmoqda va nodavlat sektorga nisbatan ustunlikka ega bo‘lib, bu bozorning xususiyashtirilishi va diversifikatsiyasini chekllovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur xususiyatlar ta‘lim xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollari hamda hududiy ta‘lim siyosatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta‘lim xizmatlari bozorida davlatning uch tomonlama roli mavjud bo‘lib, u ta‘lim tizimining samarali faoliyati va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi tomondan, davlat davlat sektoridagi hamda davlat uchun strategik ahamiyatga ega boshqa tarmoqlardagi korxonalar va tashkilotlar uchun ta‘lim xizmatlarining asosiy buyurtmachisi sifatida faoliyat yuritadi.

Ikkinchi tomondan, davlat ta‘lim xizmatlari iste‘molchilari hamda ta‘lim muassasalarini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini bajaradi, bu esa bepul va barcha uchun ochiq bo‘lgan ta‘lim xizmatlarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi tomondan, davlat bozorda an‘anaviy hisoblangan funksiyalarni bajarishga mas‘uldir. Jumladan, ta‘lim xizmatlari bozori subyektlarini monopoliyadan, biznesdagi insofsizlikdan va noto‘g‘ri reklamadan himoya qilish, ta‘lim sifatini nazorat qilish, shuningdek, davlat hisoboti va statistikasini yuritish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazaridan, mehnat bozori bilan ta‘lim xizmatlari bozori o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan davlat chora-tadbirlarini ham ushbu ro‘yxatga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Inson kapitalini rivojlantirishda ta‘limning o‘rni jiddiy ahamiyat kasb etadi va bu soha nafaqat davlat, balki ish beruvchilar tomonidan ham alohida e‘tibor qaratiladigan yo‘nalish hisoblanadi. An‘anaviy nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun yuqori malakali, oliy kasbiy ta‘limga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim shakli sifatida qolmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda innovatsion tamoyillarning kuchayishi, jamiyat hayotida liberal qadriyatlarining o‘sishi kabi global tendensiyalar fonida aholining yollanma ishchilar qatlamidan yanada erkinroq turmush tarziga va shu bilan bog‘liq ravishda erkinroq bandlik shakliga bosqichma-bosqich o‘tishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon ta‘lim xizmatlari bozori muvozanatiga va iqtisodiyotning professional kadrlar talabiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun, mazkur tendensiyaning rivojlanishini prognoz qilishda mintaqaning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ta‘lim tizimining xususiyatlarini hisobga olish zarurdir. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim xizmatlari bozori va mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini mintaqa xususiyatlariga muvofiq rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. 2024-yilda iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha malakali kadrlarga bo‘lgan talab va taklifni

o‘zgarishini 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Iqtisodiyot yo‘nalishida malakali kadrlarga bo‘lgan talab

№	Iqtisodiyot yo‘nalishi	Yillik talab (ming kishi)	Mavjud kadrlar (ming kishi)	Yetishmovchilik (%)	Ortiqcha kadrlar(%)
1	Bank ishi va moliya	10	12	-	20%
2	Sug‘urta va investitsiyalar	8	5	25%	-
3	Korporativ boshqaruv	6	5	17%	-
4	Soliq va audit	7	6	14%	-
5	Biznes va tadbirkorlik	9	10	-	11%
6	Marketing va reklama	5	6	-	20%
7	Davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosat	6	5	17%	-

Ushbu jadval iqtisodiyot sohasida ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar yetishmovchiligi mavjudligini, ba’zi yo‘nalishlarda esa ortiqcha kadrlar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ta’lim xizmatlari bozori va korxonalarining turli malaka darajasidagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada muvofiqlashtirishga yordam beruvchi eng muhim tendensiya ta’lim tashkilotlari va kasbiy tayyorgarlikka ega ishchi kuchini jalb qilishdan manfaatdor korxonalar o‘rtasida strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir.

Malakali kadrlarning yetishib chiqishi ilm-fan, texnologiya va san’at sohalarida innovatsiyalarni kuchaytirib, jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, ta’lim aholining mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashishiga yordam beradi, bu esa ishsizlik darajasining keskin kamayishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Har bir korxonada rahbari doimo malakali kadrlarni ishga olishga, mavjud kadrlarni salohiyatini oshirishga va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi loyihalarga ega bo‘lishga intiladi. Shu o‘rinda ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishda bir qancha bosqichlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim sanaladi:

1. Bozor talabini tahlil qilish, ya’ni mavjud ish o‘rinlari, ishsizlik darajasi, sohalar bo‘yicha ishchi kuchiga bo‘lgan talabni, yangi kasblar va zamonaviy ko‘nikmalarga ehtiyoj, qaysi mutaxassisliklarga talab yuqoriligi va qanday ko‘nikmalar yetishmayotganini aniqlash va yechimini topish.
2. Ta’lim darajasi va mehnat bozoriga mos kelishi, kasbiy rivojlanish dasturlari hamda bitiruvchilarning bandlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash lozim.
3. Kelajak prognozlarini ishlab chiqish, ya’ni ish o‘rinlari o‘sishi va kamayishini bashorat qilish, yangi kasblarning shakllanishi, texnologiyalar va boshqa sohalaridagi o‘zgarishlar inobatga olinishi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.
4. Ta’lim xizmatlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ya’ni o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligi, ish beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini yaratish va uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish hamda malaka oshirish, qayta tayyorlash dasturlarini kuchaytirish bo‘yicha zamonaviy dasturlar ishlab chiqish muhim sanaladi.

Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo‘lgan talabni shakllantirish samarali ta’lim tizimini barpo etish va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va sanoat tarmoqlarining professional talablariga muvofiqlashtirishni talab etadi.

Ta’lim xizmatlari bozori malakali kadrlar tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishi lozim, bu esa mutaxassislarning bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Ta’lim dasturlarini ta’lim xizmatlari bozori talablariga moslashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish orqali ushbu yo‘nalishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Ta’lim xizmatlari har qanday jamiyat va iqtisodiyotning poydevori bo‘lib, u

inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, mamlakatlar ta’lim tizimini takomillashtirish orqali nafaqat ijtimoiy rivojlanishga, balki uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ham erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гайнаров Д.А., Галямов Р.Р. Модель минимизации структурных дисбалансов рынка труда. Вестник УГАТУ. 2006,Т,8,№ 2. С. 89-92
2. Буланов В.С. Труд как фактор социально-экономического развития. -М.: Изд-во РАГС,2007.
3. Васильев В.Н., Питухин Е.А., Гуртов В.А. Рынок труда и рынок образовательных услуг в Российской Федерации. -М.: Техносфера,2007.
4. Абдулкеримов И.З. Факторы и условия развития интеграционных процессов на рынке образовательных услуг // Региональные проблемы экономической трансформации. - 2011. - № 2 (28). 286-292.
5. Eshboyev A.X.(2008). Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri: i.f.n. dis. avtoreferati. –T.: -25 b.
6. Xasanova.G. Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences. 2021.
7. Usmonova R.M. (2011) Ta’lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish (oliy ta’lim misolida): i.f.n. ...dis. avtoreferati. -T.: -25 b.
8. Вахабов А., Имамов Э. (2007) Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. –М.: -214 с.
9. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. Toshkent: Akademiya, 2002.

<p>Ф.Исмоилова</p> <p>Основы формирования потребности в квалифицированных кадрах на рынке образовательных услуг</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются этапы формирования спроса на квалифицированные кадры на рынке образовательных услуг. Обозначены механизмы реализации основных стратегий, способствующих обобщению спроса на специалистов разного уровня квалификации на рынке образовательных услуг и в организациях отрасли.</p> <p>Ключевые слова: образовательные услуги, спрос, трудовые ресурсы, профессиональная подготовка, международный рейтинг, потребность, интеграция, сотрудничество.</p>	<p>F.Ismoilova</p> <p>The basics of forming the need for qualified personnel in the educational services market</p> <p>Abstract. This article discusses the stages of shaping the demand for qualified personnel in the educational services market. It outlines the mechanisms for implementing key strategies that contribute to the generalization of the demand for specialists of various qualification levels in the educational services market and organizations in the sector.</p> <p>Keywords: educational services, demand, labor resources, professional training, international rating, need, integration, cooperation.</p>
---	--

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasida mudiri, dotsent, fal.f.n.

Is’haq Abduraxmonov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali “Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasida o‘qituvchisi

XIZMAT KO‘RSATISH ODOBI YUSUF XOS HOJIB TALQINIDA

<p>Annotasiya. Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi falsafiy-axloqiy g‘oyalarning metodologik tahlili bayon etilgan. Shuningdek, maqolada xizmat ko‘rsatish, xususan, mehmon kutish odobi xususida alloma ilgari surgan rasional yondashuvining ilmiy ahamiyati yoritib berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, axloq, odob, mehmon, xizmat ko‘rsatish odobi, ovqatlanish odobi, idrok, farosat, ziyofat, poklik, halollik, aql, mantiqiy fikrlash, rasionallik.</p>

Kirish. Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyo bashariyat ma’naviy taraqqiyotida o‘zining nodir asarlari bilan beminnat xizmat qilgan ko‘plab allomalarni yetishtirib berdi. Qomusiy mutafakkir allomalarimiz ilm-fan va madaniyatning barcha sohalari bo‘yicha ulkan meros qoldirib ketdilar. Ayniqsa, ajdodlarimiz

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.